2024 yil 1-semestr uchun xalqaro talabalar uchun maxsus intervyu qo'llanmasi

1. Suhbat usuli : On-line suhbat (ZOOM), tizim bo'yicha 1 (talaba) : 2 (suhbat qabul qiluvchi)

2. Suhbat sanasi : 2023 yil 16 dekabr (shanba), 17 dekabr (yakshanba), 18 dekabr (dushanba)

3. Suhbat o'tish vaqti : 10:00~12:00, 13:30~15:30, 16:00~18:00 / har bir talabaga 6 daqiqadan

※ Aniq vaqt, kun, suhbat uchun URL-ilovani alohida talabaga E-MAIL orqali yuboramiz. Albatta belgilangan vaqtda link orqali kirib suhbatdan o'tish shart.

4. Suhbat tartibi

ZOOM-ga kirish
※ Albatta belgilangan URL ilova orqali o'z vaqtida kirish lozim

→ **Ism o'zgartirilgandan keyin kutish zaliga kiring**
※ Anketada koreys tilida yozilgan ismingizdek o'zgartirishingiz kerak

→ **Shaxsni tasdiqlash va kutish zaliga kirish**
※ Administrator talabaning hujjatini va yuzini video orqali tekshiradi
※ Video chat orqali suhbat qoidalari va tartibi tushuntiriladi

→ **Suhbatda ishtrok**
※ Administrator nazorati ostida suhbat xonasiga avtomatik kirish

→ **Suhbat**

→ **Chiqish**

※ Suhbat boshlanishiga 20 daqiqa oldin kirish shart

5. Suhbatdan o'tish tartibi

1) Suhbat kutayotganlar tartib soni bo'yicha birma-bir o'tkaziladi.
2) Suhbat tartibi vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin.

6. Ogohlantirishlar va ko'rsatmalar

1) ZOOM ishlash tartibi

(1) Video intervyu faqat kompyuter orqali, kameraga ulangan holda, mikrofon va dinamik ishlagan holda qabul qilinadi (kamera, dinamik, mikrofon va ZOOM o'rnatilgan bo'lishi shart).

※ Iloji boricha kompyuterdan foydalanib kirish kerak, kompyuterdan foydalanishning ilojisi bo'lmasa smartfondan foydalanishingiz mumkin. Smartfonlarga kelsak, ba'zi funktsiyalar qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin, sshu sababdan kelib chiqgan muammolar uchun talabaning o'zi javobgardir.

(2) Albatta oldindan kompyuter yoki smartfon orqali Zoomni kirishini tekshirib, kamera, mikrofon, dinamik va boshqalarni ishlashini tekshirgan holda, ovozni balandligi va ekrani ishlashini ham e'tiborga olish kerak.

※ Mikrofon va dinamik holatiga qarab, suhbat jarayoni yaxshi o'tmasligi mumkin, shuning uchun, iloji bo'lsa, naushniklardan foydalaning (*mikrofonli naushniklar).

(3) O'rnatilgan batareyadan foydalanadigan qurilmaga ulanganda, batareyaning zaryadlash holatini va internet tarmoq holatini oldindan tekshiring.

(4) Video suhbatni yozib olish taqiqlanadi va agar ular aniqlansa, bu qoida buzilishi deb hisoblanadi.

(5) ZOOM-ga qanday kirish va undan foydalanish haqida batafsil ma'lumot olish uchun siz "Zoom dasturidan foydalanish to'g'risida" alohida fayldan ko'rib bilib olishingiz mumkin.

(6) Suhbat kuni ZOOM-ga kirishda muammolarga duch kelsangiz, oldindan bizning ofisimizga murojaat qiling (aloqa: 041-530-1304)

2) Suhbat o'tkaziladigan joy va vaqt haqida

(1) Suhbat joyi jim va alohida ajratilgan joy bo'lishi kerak, internetga kirishga shuningdek uzluksiz tezlikka ega bo'lishi kerak va suhbat joyida faqat talabaning o'zi bo'lishi kerak.

※ Agar suhbat joyida begona odam bo'lsa, bu qoida buzulishi deb hisoblanadi.

(2) Belgilangan vaqtdan tashqari suhbatga qatnashish mumkin emas.

※ Agar siz belgilangan vaqtdan oldin ulansangiz, sizni majburiy chiqarib yuborishadi va belgilangan vaqtdan keyin ulansangiz, suhbatingiz bekor qilinadi.

(3) Belgilangan suhbat vaqtini o'zgartirish mumkin emas.

3) Boshqalar

(1) Iltimos, suhbat paytida uychi kiyimda bo'lmang.

(2) Shaxsni tasdiqlash uchun faqat chet elliklarning ID-kartalari, koreys haydovchilik guvohnomalari, pasportlar va talabalar kartalari (Koreys tili markazining talabalar kartasi) qabul qilinadi, shuning uchun suhbatdan oldin oldindan tayyorlang.

(3) Agar sizda video intervyu bilan bog'liq boshqa savollaringiz bo'lsa, iltimos, bizning Xalqaro ta'lim almashinuvi idoramizga murojaat qiling (aloqa: 041-530-1304)

순천향대학교 국제교육교류처